

**STOMATOLOGIYA MUASSASALARIDA SANITARIYA-
GIGIYENA REJIMI.MEHNAT GIGIENASI,SHAXSIY GIGIENA
QOIDALARI,XODIMLARNI TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZISH.**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Annotatsiya: Ushbu maqolada stomatologiya muassasalarida sanitariya-gigiena rejimini saqlash,mehnat va shaxsiy gigiena qoidalariga rioya etish hamda xodimlarni muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalalari yoritiladi.Bu talablar bemor va xodimlar salomatligini saqlash,infeksion kasalliklarning oldini olish hamda tibbiy xizmat sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: sanitariya, gigiena, tibbiy ko'rik, infeksiya profilaktikasi, xavfsizlik, sog'lom ish muhiti, dezinfeksiya, kasalliklarni oldini olish, SanPin.

Stomatologiya amaliyoti-yuqumli kasalliklar tarqalish ehtimoli yuqori bo'lgan tibbiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu birinchi navbatda,og'iz bo'shlig'idagi to'qimalarning yaqinligi,qon,shilliq,so'lak bilan doimiy kontakt,asbob-uskunlarning ko'p marta qo'llanilishi va havo-tomchi yo'li orqali tarqalish imkoniyati bilan bog'liq.Shuning uchun har bir stomatologik muassasada infeksiya nazoratining asosiy bo'g'ini sanitariya-gigiena rejimidir. Sanitariya gigiena rejimi-stomatologik muassasada amal qilinadigan tashkiliy,dezinfeksion,sterilizatsiya va sanitariya tadbirlarining yig'indisi bo'lib,uning maqsadi infeksiya manbalarini yo'qotish,yuqish yo'llarini uzish,tashuvchilikni oldini olish,aseptika va antiseptika talablariga rioya qilishdir.Bu rejimi **SanPin**, Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqlari asosida belgilanadi. Stomatologik muassasaning sanitar-gigienik talablari.Muassasa



sanitariya qoidalariga muvofiq binoda joylashtiriladi. Ish xonalari oqimli tizimda joylashadi: iflos zona-tayyor zona-toza zona. Ventilyatsiya tizimi bo'lishi kerak. Harorat 20-22°C. Havo namligi 40-60%. Havo almashinuvi soatiga 3-4 marta. Kvarslash orqali havo dezinfeksiya-har ish kuni boshida va oxirida 30 daqiqa. Tabiiy va sun'iy yoritish bo'lishi kerak. Sterilizatsiya tadbirlari. Asboblarni qayta ishlash bosqichlari. Dezinfeksiya (avvalgi bosqich). Asboblardan so'ng darhol dezinfeksiya eritmasiga solinadi. Eritma konsentratsiyasi va vaqt SanPin talablariga muvofiq belgilandi. Mexanik tozalash bosqichi. Asboblardan yuvish vositalari va sho'tka yordamida tozalanadi. Qon, so'lak, plomba yoki sement qoldiqlari butunlay olib tashlanadi. Sterilizatsiya (yakuniy bosqich). Avtoklav, havo sterilizatori, ximik usul yordamida amalga oshiriladi. Steril asboblardan yopiq steril paketlarda saqlanadi. Saqlash muddati 3 kundan oshmasligi kerak. Har bir paketda sterilizatsiya indikator bo'lishi kerak. Xonalash va jihozlarni dezinfeksiya qilish. Kundalik dezinfeksiya. Ish tugagach pol, mebel, asboblardan, eshik tutqichlari, uskunalar 0,5% xlorli eritma bilan artiladi. Qabul stoli va stomatolog kreslosi har bir bemordan keyin spirtli antiseptik bilan artiladi. General tozalash. Haftasiga kamida 1 marta o'tkaziladi. Devorlar, yoritgichlar, havo kanallari tozalanadi. Havo dezinfeksiyasi. Ultrabinafsha nurlar yordamida havo filtrlash tizimlari orqali tozalanadi. Shaxsiy gigiena qoidalar. Tibbiy hodimlar uchun talablar: ishga kirishdan oldin sanitariya ma'lumotnomasi va vaktsinasi bo'lishi kerak. Har bir bemordan oldin va keyin qo'lni antiseptik bilan ishlodan o'tkazish. Bir martalik perchatka, maska, kalpachok va halat kiyilishi majburiy. Yordamchi hodimlar ham sanitariya qoidalariga amal qilishlari kerak. Nazorat va javobgarlik. Sanitariya rejimi ustidan nazoratni tabbiyot muassasasi rahbari va sanitariya epidemiologiya xizmati amalga oshiradi. Buzilish holatlarida ma'muriy yoki intizomiy choralar qo'llaniladi. Mehnat gigienasi tushunchasi va uning ahamiyati. Mehnat gigienasi-bu shifokorning sog'lom mehnat sharoitini ta'minlovchi choralar hisoblanadi. Maqsadi-ish muhitini inson organizmi fiziologiyasiga moslashtirish, kasbiy kasalliklar va zararli ta'sirlarning oldini olish, tibbiy hodimning ish qobiliyatini saqlash. Xodimlarni ko'rikdan o'tkazish.

Dastlabki ko'rik.Ishga qabuldan oldin bo'ladi.Bunda kasbiy malakani baholash,yuqumli kasalliklar bo'yicha skiring ma'lumotlari o'riladi. Davriy ko'rik. Har yili yoki 6 oyda 1 marta olinadi.Tekshiriladigan asosiy ko'rsatkichalar: qon tahlili(gepatitB,C,vic,RW), flyurogarfiya-yilda 1 marta, terini va shilliqni ko'rikdan o'tkazish, nevrologik va psixatriya ko'rigi-zarurat bo'lsa. Gepatit B ga qarshi 0-1-6 oy rejimida yilda 3 marta, difteriyaga 10 yilda 1 marta va yana tuberklyoz, COVID19 ga qarshi emlashlar olinishi zarur.

Xulosa

Stomatologiya muassasalarida sanitariya va gigiena qoidalariga qat'iy rioya etish-bu nafaqat tozalikni,balki bemorlar hamda tibbiyot hodimlarining sog'lig'ini himoya qilishni ta'minlaydi. Gigienik talablarning bajarilishi infeksiyalar tarqalishinng oldini olib, tibbiy xizmat sifatini oshiradi va sog'lom muhit yaratadi. Shu bois, har bir stomatologik xodim o'z ish faoliyatida gigiena madaniyatiga qat'iy amal qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.SH.Usmonov,N.I.Saidov. Umumiy gigiena.Toshkent2020
2. M.G.Raximov,N.M.Avdullaeva. Tibbiyotda sanitariya-gigiena asoslari.
3. Z.A.Jo'raboyeva,D.X.Tursunova. Shaxsiy gigiena va profilaktika asoslari.Toshkent2017.